

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINING RIVOJLANISH TAHLILI

Xursanaliyev Boburmirzo

Yusupov Abbosxon

Qo'qon Davlat Universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya

Maqolada mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni O'zbekiston iqtisodiyotidagi ulushi tahlil etilgan.

The article highlights the importance of small business and private entrepreneurship in the country's economy. The share of small business and private entrepreneurship in the Uzbek economy is analyzed.

В статье подчеркивается значение малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике страны. Проанализирована доля малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике Узбекистана.

Kalit so'zlar: erkin bozor, YaIM, bandlik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, eksport, import.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, samaradorlik va tadbirkorlik sifatlarisiz tasavvur qilish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining rivojlanishi odamlarning turmush tarzi, turmush tarzi, ma'naviy va hayotiy malakalariga ta'sir ko'rsatadi. Hozirda respublikamiz fuqarolari Yevropaning rivojlangan davlatlari, AQSH, Yaponiyaning boy amaliy tajribasidan yetarlicha xabardor.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning yetakchi tarmoqlarini yangi texnologiyalarga o'tkazishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tobora o'z o'rnnini topmoqda. Ular butun tizimning asosiy majburiy sifatini namoyish etadi, bu ish jarayonini yangi g'oyalari va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish bilan ta'minlaydi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, mashinasozlik, xalq iste'moli mollari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati bo'yicha davlat korxonalarli ishlab chiqarayotgan mahsulotlardan qolishmaydi, ayrim hollarda ulardan ham oshib ketadi. Respublikamizda kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik faoliyatining 60-70 foizi bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, bular fermerlar, dehqonlar, sanoatchilar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilar va boshqalar.

Bu ko'rsatkichlarni ulushini yanada oshirish maqsadida Respublikamiz Prezidentining 2021 yildagi 21 apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5087 sonli qaroriga muvofiq kichik biznes subyektlarini iqtisodiy-moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar samarali olib borilmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida olib borilayotkan uzliksiz islohotlar natijasi o'laroq, bu sohada yildan-yilga ijobjiy o'zgarishlar qayd etilmoqda va mamlakatimiz iqtisodiyotining namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkichlarida kichik biznesning o'rni taboro ortib bormoqda (1 jadval).

Ushbu statistik jadval ma'lumotlari yangi ming yillikning oxirgi dekadasida mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznesning ulushi aks etgan raqamlardir. Ko'rish mumkinki, jadvalda keltirilgan olti ko'rsatkichning barchasida kichik biznesning ulushi sezilarli darajada o'sgan. Lekin,

barcha sohalarga 2020-2021 yillarda butun dunyoda COVID-19 ning tarqalishi natijasida salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadı.

Ko'rsatkichlar	YaIM	Sanoat	Qurilish	Bandlik	Eksport	Import
2000	31.0	12.9	38.4	49.7	10.2	22.8
2001	33.8	12.5	40.4	51.8	9.3	26.7
2002	34.6	15.4	42.0	53.5	7.5	24.9
2003	35.0	10.8	39.9	56.7	7.3	33.7
2004	35.6	11.0	49.6	60.3	7.3	32.7
2005	38.2	10.0	50.9	64.8	6.0	33.7
2006	42.1	10.9	52.1	69.1	11.2	34.2
2007	45.7	13.2	55.4	72.1	14.8	32.0
2008	48.2	14.6	58.4	73.1	12.4	35.7
2009	50.1	17.9	42.4	73.9	14.6	42.5
2010	60.8	26.6	52.5	74.3	13.7	35.8
2011	61.9	28.6	67.6	75.1	18.8	34.3
2012	60.8	29.7	70.0	75.6	14.0	38.6
2013	60.9	33.0	70.6	76.7	26.2	42.4
2014	61.9	36.8	69.5	77.6	27.0	45.4
2015	64.6	40.6	66.7	77.9	27.0	44.5
2016	66.8	45.3	66.9	78.2	26.0	46.8
2017	65.3	41.2	64.8	78.0	22.0	53.6
2018	62.4	37.4	73.2	76.3	27.2	56.2
2019	56.0	25.8	75.8	76.2	27.0	61.6
2020	55.7	27.9	72.5	74.5	20.5	51.7
2021	54.9	27.0	72.4	-	22.3	48.7

1- jadval. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2000- yillarda 30% ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilga kelib bu ko'rsatkich qariyb 55% ga yetdi. Sanoatdagi ulushi esa, o'z navbatida, 12% (2000-yil)dan 27% (2021 - yil)ga yetdi. Qurilish sohasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi berilgan yillar oralig'ida 34% ga ko'tarilgan, bu ayniqsa so'ngi dekadada sezilarli darajada o'sgan. Aholi bandiligidagi xususiy tadbirkorlik boshqa sohalarni ortta goldirganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, 2000 – yillarda 49% ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2020 – yilga kelib, 74% ulushga egalik qildi. Bundan tashqari, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni chet elga sotish va chet el tovarlarini mamlakatimizga olib kirishda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlar alohida o'r'in tutmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, berilgan yillar oralig'ida eksportdagi xususiy tadbirkorlarning ulushi 12% ga, shu vaqt mobaynida import darajasi esa 26% ga oshganini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakatimizning iqtisodiy- ijtimoiy sohalarida alohida o'r'in tutgan bo'lib, ularning rivojlanishi iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash va xatto, tashqi iqtisodiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ularning erkin faoliyat yuritishi va mulk xuquqlarining kafolatlanganligi mamlakatda bunday faoliyat bilan shug'ullanish istagini yaralishiga va faoliyat yuritib kelayokgan subyektlar esa yangida-yangi sohalarni kashf etilishiga olib keladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yildagi 21 apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada ya xshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-5087 sonli qarori

3. M.R. Boltaboev, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergashxodjaeva, B.K. G'oyibnazarov, A.N. Samadov, R .Xodjaev. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. - T .: 2011
4. Ruziev S., Rasulov H., Yusupov A. MEHMONDO'STLIK VA TURIZM SANOATIDAGI BOSH QARUV SOXALARIDA GENDER XILMA-XILLIGI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 156-173.
5. Шохрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Ҳамиджон Яқубович Расулов, & Аббосхон Алиевич Ю супов (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Academic research in educational sciences, 3 (2), 617-629.
6. Шохрузбек Равшан Ўғли Рузиев, Аббосхон Алиевич Юсупов Туризм хизматларни ярат ишда рақамли технологиялардан фойдаланишни тақиеллаштириш йўллари // Наук а и образование. 2022.
7. www.stat.uz ma'lumotlari